

Mavzu: Gapning tuzilishiga ko'ra turlari (qo'shma gap)

Aa Kōp ōyla, bir sōyla.

palitra



Palitra – rassom ishlash jarayonida bo'yoqlarni aralashtiradigan to'rtburchak yoki oval shaklidagi taxtacha.



Gaplar tuzilishiga ko'ra ikkiga bo'linadi

Sodda gap

Bir grammatik asos (ega va kesim)dan tashkil topgan gap
[— =].

Masalan: Poyezd to'xtadi.

Qo'shma gap

Ikki va undan ortiq grammatik asosdan tashkil topgan gap
[— =], [— =].

Masalan: Poyezd to'xtadi,
yo'lovchilar tushdi.



1-mashq. Chizmaga mos sodda gaplarni aniqlang. Shu sodda gaplardan qo'shma gaplar tuzing.

1 [— =].

3 [— =].

2 [— =].

4 [— =].

Foydalanish uchun gaplar:

Daraxt barglari sarg'aydi.
Dalada dehqonlar hosilni yig'di.
Qushlar issiq o'lkalarga qaytdi.
Kuz keldi.





2-mashq. Ko'chiring. Gaplarning bosh bo'laklarini aniqlang.

Oz gapir, soz gapir.

Mard maydonda sinalar.

Bulbul bir oy sayraydi,
Olaqarg'a yil bo'yi qag'illaydi.

Ildizi baquvvat daraxtni
shamol yiqitmaydi.

- Yozgan gaplaringiz tuzilishiga ko'ra qanday gap?



Ikki va undan ortiq sodda gaplarning o'zaro mazmun va ohang jihatidan bog'lanishidan hosil bo'lgan gap **qo'shma gap** deyiladi.

Masalan: Bilimli o'zar, bilimsiz to'zar.

Qor yog'di va gullar ochildi deb bo'lmaydi, chunki bu gaplar bir-biriga mazmunan muvofiq kelmaydi.



3-mashq. Husnixat bilan ko'chiring. Bosh bo'laklarni belgilang.

Oltin kuz keldi. Dalalarda hosil yetilib, dehqonlarning eng sertashvish davri boshlandi. Saxovatli kuz hosilini ko'z-ko'z qiladi, dilimizga zavq bag'ishlaydi. Bu faslda daraxtlarning yaproqlari sarg'ayib yerga to'kiladi va bog'lar yanada sirli tus oladi.

- Matn nechta gapdan iborat?
- Ular tuzilishiga ko'ra qanday gaplar?



Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog'lash uchun **va**, **lekin**, **ammo**, **biroq** kabi bog'lovchi so'zlardan foydalaniladi.

Masalan: Kechasi yomg'ir yog'di, **biroq** tongda quyosh charaqlab chiqdi.

Ohang yordamida bog'langan sodda gaplar bir-biridan vergul (,) yoki tire (–) bilan ajratiladi.

Masalan: Qor yog'di – rizq yog'di.



4-mashq. O'qing. Sodda gaplarni mos bog'lovchilar bilan qo'shma gapga aylantiring.

Oftob chiqdi.

lekin

Akmal ularni bajardi.

Jasur vokzalga keldi.

ammo

Xona yorishdi.

Topshiriqlar qiyin edi.

va

Qayiq ko'rinmadi.

U daryo bo'ylab yurdi.

biroq

Poyezd jo'nab ketgan edi.



5-mashq. Matnni o'qing, sarlavha qo'ying. Ko'chiring, bosh bo'laklarni tegishlicha belgilang.

Kichkina Tomchi moviy bulut ichida yashar edi. Bir kuni shamol esibdi, bulut esa osmonda suzib ketibdi. Tomchi yerga yomg'ir bo'lib tushibdi. U yashil barg ustiga qo'nibdi. Quyosh chiqibdi, barglar yaltirabdi. Keyin Tomchi soyga tushibdi, soy esa uni daryoga olib boribdi. Tomchi daryodan dengizga o'tibdi...

- Tomchining sayohatini davom ettiring.
- Matndagi sodda va qo'shma gaplarni aniqlang. Fikringizni izohlang.

